

---

Farg'ona shahar hokimiga yangi o'rinbosar tayinlandi

***Farg'ona shahar hokimining tegishli qarori bilan Baxtiyorov Jahongir Baxtiyorjon o'g'li Farg'ona shahar hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari etib tayinlandi.***

***Jahongir Baxtiyorov 1989 yilda Qo'shtepa tumanida tug'ilgan. 2011 yilda Farg'ona politexnika institutini tamomlagan. Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi servis, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish.***

***2011-2013 yillarda Farg'ona viloyat "Suvoqava" ishlab chiqarish davlat boshqarmasi mijozlar bo'limi hisobchisi, muhandis-texnolog, muhandis-metrologi, 2013-2015 yillarda Farg'ona shahar hokimining kapital qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik va obodonlashtirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari yetakchi mutaxassisi, 2015-2016 yillarda Farg'ona viloyati dexqon bozorlari va savdo komplekslari uyushmasi bo'lim boshlig'i, 2018-2019 yillarda Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi Farg'ona shahar bo'limi boshlig'i, so'nggi yillarda Farg'ona shahar hokimligi xo'jalik hisobidagi uy-joy bo'limi boshlig'i, Farg'ona shahar Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi, Aholini tadbirkorlikka o'qitish va jalb qilish sho'basi mudiri vazifalarida ishlagan.***

***Tayinlovga qadar Farg'ona shahar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i lavozimida faoliyat olib borgan.***

2023-11-22 14:27:38